

Management and Economics Innovations, 6(02), 40–43.

3. Alter, A. (2017). *Irresistible: The rise of addictive technology and the business of keeping us hooked*. Penguin Press.

4. Alt, D. (2015). College students' academic motivation, media engagement and fear of missing out. *Computers in Human Behavior*, 49, 111–119.

5. Baumeister, R. F., & Masicampo, E. J. (2010). Conscious thought is for facilitating social and cultural interactions: How mental simulations serve the animal–culture interface. *Psychological Review*, 117(3), 945–971.

6. Bratman, G. N., Anderson, C. B., Berman, M. G., Cochran, B., De Vries, S., Flanders, J., Folke, C., Frumkin, H., Gross, J. J., Hartig, T., et al. (2019). Nature and mental health: An ecosystem service perspective. *Science Advances*, 5(7), eaax0903.

7. Bright, L. F., & Logan, K. (2018). Is my fear of missing out (FOMO) causing fatigue? Advertising, social media fatigue, and the implications for consumers and brands. *Internet Research*, 28(5), 1213–1227.

8. Buhalis, D., & Law, R. (2008). Progress in information technology and tourism management: 20 years on and 10 years after the Internet-The state of eTourism research. *Tourism Management*, 29(4), 609–623.

9. Demirci, K., Akgönül, M., & Akpınar, A. (2015). Relationship of smartphone use severity with sleep quality, depression, and anxiety in university students. *Journal of Behavioral Addictions*, 4(2), 85–92.

10. Dickinson, J. E., Hibbert, J. F., & Filimonau, V. (2016). Mobile technology and the tourist experience: (Dis)connection at the campsite. *Tourism Management*, 57, 193–201.

Barno MAMMETOVA,
Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i,
Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi

O‘ZBEKISTON SHAROITIDA YASHIL TURIZM VA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING BARQAROR TURIZMNI TA’MINLASHDAGI AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston sharoitida yashil turizm va ekologik madaniyatni rivojlantirishning barqaror turizmni ta’minlashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Yashil turizmning nazariy asoslari, ekologik madaniyatning turizm rivojiga ta’siri hamda xalqaro tajriba asosida O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishni rivojlantirish istiqbollari yoritilgan. Shuningdek, yashil turizmni rivojlantirishning institutsional mexanizmlari va amaliy takliflari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yashil turizm, barqaror turizm, ekologik madaniyat, ekologik barqarorlik, ekoturizm, yashil iqtisodiyot, ekologik boshqaruv, ziyorat turizmi, turizm infratuzilmasi.

Аннотация. В статье проанализировано значение развития зелёного туризма и экологической культуры в обеспечении устойчивого туризма в условиях Узбекистана. Рассмотрены теоретические основы зелёного туризма, влияние экологической культуры на развитие туризма, а также перспективы развития данного направления в Узбекистане на основе международного опыта. Кроме того, разработаны институциональные механизмы и практические рекомендации по развитию зелёного туризма.

Ключевые слова: зелёный туризм, устойчивый туризм, экологическая культура, экологическая устойчивость, экотуризм, зелёная экономика, экологическое управление, паломнический туризм, туристическая инфраструктура.

Abstract. The article analyzes the importance of developing green tourism and environmental culture in ensuring sustainable tourism in Uzbekistan. It examines the theoretical foundations of green tourism, the impact of environmental culture on tourism development, and the prospects for advancing this sector in Uzbekistan based on international experience. Furthermore, institutional mechanisms and practical recommendations for the development of green tourism are proposed.

Keywords: green tourism, sustainable tourism, environmental culture, environmental sustainability, ecotourism, green economy, environmental management, pilgrimage tourism, tourism infrastructure.

So‘nggi yillarda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez tiklanayotgan va kengayib borayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. UN Tourism ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda xalqaro turistlar soni 1,4 mlrd. nafarga yetib, pandemiyadan oldingi darajaning 99 foiziga tiklandi¹⁰. WTTC hisob-kitoblariga ko‘ra, 2025-yilda sayohat va turizmning jahon yalpi ichki mahsulotiga qo‘shgan hissasi 11,6 trln. AQSh dollarini tashkil etib, global iqtisodiyotning 9,8 foiziga teng bo‘ldi¹¹. Bu raqamlar turizmning iqtisodiy ahamiyatini ko‘rsatsa-da, uning ekologik bosimi ham ortib borayotganini inkor etib bo‘lmaydi.

Ilmiy tadqiqotlarda turizm global issiqxona gazlari chiqindilarining sezilarli qismiga sabab bo‘layotgani qayd etiladi. Xususan, 2024-yilda Nature Communications jurnalida e‘lon qilingan tadqiqotda 2019-yilda turizmning karbon izi 5,2 Gt CO₂-ekvivalentga yetgani va bu global chiqindilarning 8,8 foiziga teng bo‘lgani ko‘rsatilgan¹². Turizm faoliyatining kengayishi transport, mehmonxona xo‘jaligi, oziq-ovqat ta‘minoti, suv iste‘moli va chiqindilar hajmining ortishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon tabiiy ekotizimlarga sezilarli bosim o‘tkazadi. Shu sababli zamonaviy ilmiy adabiyotlarda turizmni rivojlantirish masalasi iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas‘uliyat nuqtai nazaridan ham baholanmoqda.

O‘zbekiston uchun ushbu masala alohida dolzarbdir. Mamlakatda turizm sohasi so‘nggi yillarda jadal o‘smoqda. Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2025-yil yanvar-dekabr oylarida O‘zbekistonga turizm maqsadida kelgan xorijiy fuqarolar soni 11,6796 mln. tashrifni tashkil etdi¹³. 2024-yilda esa turizm xizmatlari eksporti 3,489 mlrd. AQSh dollariga yetib, 2023-yildagi 2,143 mlrd. dollarga nisbatan qariyb 62 foizga oshgani qayd etilgan¹⁴. Bu o‘shish O‘zbekistonning

¹⁰ UN Tourism. International tourism recovers pre-pandemic levels in 2024 // UN Tourism. 2025. URL: <https://www.untourism.int/news/international-tourism-recovers-pre-pandemic-levels-in-2024>

¹¹ World Travel & Tourism Council. Travel & Tourism Economic Impact Research 2025 // WTTC. 2026. URL: <https://wttc.org/research/economic-impact>

¹² Sun Y.Y. et al. Drivers of global tourism carbon emissions // Nature Communications. 2024. URL: <https://www.nature.com/articles/s41467-024-54582-7>

¹³ Ўзбекистон Республикасида туристик оқим (2025 йилнинг январь-декабрь ойлари учун). Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитасининг “Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати” ахборотномаси. URL: <https://stat.uz/files/611/choraklik-natijalar-2025-yanvar-dekabruz/4233/20--pdf>

¹⁴ 2024-yilda davlat byudjetidan turizm sohasi uchun ajratilgan mablag‘lar va turizm xizmatlari eksporti bo‘yicha ma‘lumotlar. URL: <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/2024-yilda-davlat-byudjetidan-turizm-sohasi-uchun-483-milliard-sum-ajratildi>

xalqaro turizm bozorida mavqeyi mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Biroq turistlar oqimining ortishi tabiiy hududlar, tarixiy shaharlar, ziyorat maskanlari, transport infratuzilmasi, suv va chiqindi boshqaruvi tizimiga qo'shimcha yuklama keltirib chiqaradi.

Ayniqsa, iqlim o'zgarishi, suv resurslari tanqisligi, cho'llanish jarayonlari va Orolbo'yi ekologik inqirozi sharoitida turizmni ekologik jihatdan barqaror rivojlantirish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Agar turizmning rivojlanishi ekologik boshqaruv mexanizmlari bilan uyg'unlashtirilmasa, qisqa muddatli iqtisodiy foyda uzoq muddatli ekologik va ijtimoiy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

Shu jihatdan yashil turizm va ekologik madaniyat O'zbekistonda barqaror turizmni ta'minlashning muhim sharti sifatida qaralishi lozim. Yashil turizm faqat tabiat qo'ynida sayohat qilish yoki ekoturistik marshrutlar tashkil etish bilan cheklanmaydi. U mehmonxona xo'jaligi, transport, ovqatlanish, chiqindilarni boshqarish, suv va energiya tejamkorligi, mahalliy aholi ishtiroki hamda turistlarning ekologik xulq-atvorini qamrab oluvchi kompleks yondashuvdir. Shu bilan birga, yashil turizm iqtisodiy o'sish, ekologik muhofaza va mahalliy aholi farovonligini birlashtiruvchi integrallashgan rivojlanish modelini ifodalaydi.

Darhaqiqat, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda yashil turizm alohida turizm turi sifatida emas, balki barqaror turizm tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishning muhim vositalaridan biri sifatida talqin qilinadi. Shuning uchun ushbu masalani ilmiy jihatdan asoslashda barqaror turizm konsepsiyasiga murojaat qilish zarur. UN Tourism barqaror turizmni hozirgi va kelajakdagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ta'sirlarni to'liq hisobga olgan holda turistlar, sanoat, atrof-muhit va mahalliy jamoalar ehtiyojlarini muvozanatlashtiruvchi faoliyat sifatida izohlaydi¹⁵. Ushbu ta'rifdan kelib chiqib, O'zbekiston sharoitida yashil turizmni rivojlantirish uch asosiy yo'nalishda tahlil qilinishi maqsadga muvofiq:

birinchidan, tabiiy resurslar va qo'riqlanadigan hududlardan oqilona foydalanish;

ikkinchidan, turizm infratuzilmasida ekologik standartlarni joriy etish;

uchinchidan, turistlar, mahalliy aholi va xizmat ko'rsatuvchi subyektlarda ekologik madaniyatni shakllantirish.

Mazkur uch yo'nalish o'zaro bog'liq bo'lib, ulardan birining sust rivojlanishi butun tizim samaradorligini pasaytiradi. Masalan, zamonaviy ekologik infratuzilma mavjud bo'lsa-da, ekologik madaniyat shakllanmagan bo'lsa, chiqindilar muammosi saqlanib qoladi. Aksincha, ekologik ong yuqori bo'lsa-yu, infratuzilma yetarli bo'lmasa, ekologik tashabbuslarning amaliy natijasi cheklangan bo'ladi.

Ma'lumki, O'zbekiston 2019 – 2030-yillarda “yashil iqtisodiyot”ga o'tish strategiyasini qabul qilgan bo'lib, ushbu strategiya iqtisodiyotda energiya samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga moslashish vazifalarini belgilaydi¹⁶. Mazkur strategik yo'nalish turizm sohasida ham “yashil o'sish” tamoyillarini joriy

¹⁵ United Nations Department of Economic and Social Affairs. Sustainable tourism definition. URL: <https://sdgs.un.org/topics/sustainable-tourism>

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “2019 – 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-4477-son Qarori.

etishni talab qiladi.

O‘zbekistonning yashil turizm salohiyati bir necha milliy xususiyatlar bilan belgilanadi. Birinchidan, mamlakat tog‘, cho‘l, suv havzalari, qo‘riqlanadigan hududlar va tarixiy-madaniy meros obyektlarini birlashtirgan noyob turistik makonga ega. Ugom-Chatqol, Zomin, Nurota, Hisor, Aydar-Arnasoy, Orolbo‘yi kabi hududlar ekoturizm va yashil turizmni rivojlantirish uchun muhim resurs bazasi hisoblanadi. Ikkinchidan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent kabi tarixiy shaharlarda turistlar oqimining oshishi ekologik yuklamani boshqarish masalasini dolzarblashtirmoqda. Uchinchidan, O‘zbekistonda ziyorat turizmi salohiyati yuqori bo‘lib, uni yashil turizm tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish yangi ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida qaralishi mumkin.

Biroq ilmiy nuqtai nazardan asosiy muammo shundaki, mamlakatda turizmning iqtisodiy samaradorligi va ekologik barqarorligi o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlaydigan yagona boshqaruv modeli hali to‘liq shakllanmagan. Turizm rivojlanmoqda, ammo uning ekologik ta‘sirini baholash, monitoring qilish va boshqarish mexanizmlari yetarli darajada institutsionallashtirilmagan. Shu sababli tadqiqotning markaziy ilmiy muammosi sifatida quyidagi savolni qo‘yish mumkin: O‘zbekistonda turizmning iqtisodiy o‘rishini saqlab qolgan holda ekologik barqarorlikni qanday ta‘minlash mumkin?

Mavjud holat shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda turizmning iqtisodiy ko‘rsatkichlari tez o‘smoqda, biroq ushbu o‘rish ekologik boshqaruv mexanizmlari bilan to‘liq uyg‘unlashmagan. Masalan, turistlar soni va turizm xizmatlari eksporti bo‘yicha o‘rish kuzatilayotgan bir paytda, ekologik sertifikatlangan mehmonxonalar, yashil transport, chiqindilarni saralash, suv tejankor xizmat ko‘rsatish va ekologik monitoring tizimi hali keng miqyosda institutsionallashtirilmagan.

Turizm geografiyasida “ekologik sig‘im” tushunchasi mavjud bo‘lib, u ma‘lum hududning ekologik muvozanatiga zarar yetkazmagan holda qabul qila oladigan maksimal turistlar sonini anglatadi. Agar turistlar oqimi ushbu chegaradan oshib ketsa, tabiiy landshaftlarning degradatsiyasi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslari tanqisligi va chiqindilar hajmining ortishi kuzatiladi. O‘zbekistonning ayrim mashhur turistik hududlarida aynan shu xavf asta-sekin namoyon bo‘la boshlamoqda.

2024-yil ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda qo‘riqlanadigan hududlar ulushi umumiy hududning taxminan 9,5 foizini tashkil etadi¹⁷. Bu ko‘rsatkich yashil turizmni rivojlantirish uchun muhim imkoniyat mavjudligini bildiradi. Shu bilan birga, qo‘riqlanadigan hududlarda turizmni rivojlantirish nazoratsiz ommaviy tashriflar hisobiga emas, balki ekologik sig‘im, yo‘laklar, chiqindi infratuzilmasi, gidlar malakasi va turistlar uchun ekologik qoidalar asosida amalga oshirilishi kerak.

Ekologik madaniyat bu jarayonda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Chunki yashil turizmni rivojlantirishda texnik infratuzilma yetarli bo‘lsa ham, turistlar va mahalliy aholining ekologik xulq-atvori shakllanmagan bo‘lsa, tabiiy hududlarga zarar yetishi, chiqindilar ko‘payishi, suv va energiya isrofi ortishi mumkin. Shu bois ekologik

¹⁷ World Bank Data. Terrestrial and marine protected areas, Uzbekistan. 2024. URL: <https://tradingeconomics.com/uzbekistan/terrestrial-protected-areas-percent-of-total-land-area-wb-data.html>

madaniyat yashil turizmning “yumshoq infratuzilmasi” sifatida baholanishi lozim.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ekologik madaniyatning rivojlanishi nafaqat ekologik, balki iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi. Masalan, energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llash, suv sarfini optimallashtirish va chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini joriy etish mehmonxonalarning operatsion xarajatlarini kamaytiradi. Natijada yashil turizm ekologik tashabbus bo‘lish bilan birga iqtisodiy raqobatbardoshlik omiliga ham aylanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, yashil turizm muvaffaqiyati faqat tabiiy resurslarning mavjudligi bilan emas, balki ularni boshqarish sifati bilan belgilanadi. Masalan, Kosta-Rika ekoturizmni milliy brend darajasiga olib chiqqan bo‘lsa, Yangi Zelandiya turistlarning ekologik mas‘uliyatini oshirishga qaratilgan xulq-atvor kodekslarini faol qo‘llaydi. Yevropa mamlakatlarida esa “green hotel”, “green destination”, “eco-label” kabi sertifikatlash tizimlari turizm xizmatlarining ekologik standartlarga mosligini baholashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xususan, Kosta-Rikada turizm daromadlarining muayyan qismi biologik xilma-xillikni saqlash va milliy bog‘larni rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Natijada turizm va tabiatni muhofaza qilish bir-birini qo‘llab-quvvatlovchi tizimga aylangan. Yangi Zelandiyada esa “Tiaki Promise” dasturi orqali har bir turist mamlakat tabiatiga ehtiyotkor munosabatda bo‘lish majburiyatini oladi. Bu yondashuv ekologik madaniyatni davlat siyosati darajasiga olib chiqqan.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida yashil sertifikatlash tizimlari mehmonxonalar va turistik obyektlarning ekologik samaradorligini muntazam baholab boradi. Sertifikatga ega bo‘lgan obyektlar bozorda qo‘shimcha raqobat ustunligiga ega bo‘ladi. Bu esa tadbirkorlarni ekologik innovatsiyalarni joriy etishga rag‘batlantiradi.

O‘zbekiston ushbu tajribani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirmasligi, balki uni milliy xususiyatlarga moslashtirishi lozim. Jumladan, suv tanqisligi, Orolbo‘yi ekologik muammolari, cho‘l va tog‘ hududlari, ziyorat turizmi, mahalla instituti va tarixiy shaharlar xususiyatlari hisobga olinishi zarur.

Yuqoridagi tahlillar va tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, O‘zbekiston sharoitida yashil turizm va ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlar ustuvor hisoblanadi:

*Birinchi*dan, “Green Destination Uzbekistan” konsepsiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunda turistik hududlar chiqindi boshqaruvi, suv tejamkorligi, energiya samaradorligi, mahalliy aholi ishtiroki, ekologik transport va turistlar uchun ekologik axborot tizimi asosida baholanishi lozim.

*Ikkinchi*dan, ziyorat turizmida yashil standartlarni joriy etish zarur. Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Zangiota, Hazrati Imom kabi ziyorat maskanlarida plastik chiqindilarni kamaytirish, yashil hududlarni kengaytirish, piyoda yo‘laklar, ekologik belgilar va suv tejamkor infratuzilmani rivojlantirish mumkin.

*Uchinchi*dan, mehmonxona va ovqatlanish obyektlari uchun “Green Hotel Uzbekistan” sertifikatlash tizimini joriy qilish lozim. Bu tizim energiya sarfi, suv iste‘moli, chiqindilarni saralash, mahalliy mahsulotlardan foydalanish va ekologik xizmat ko‘rsatish madaniyati asosida ishlashi kerak.

*To‘rtinchi*dan, turizm ta’limida ekologik madaniyat, yashil menejment va barqaror destinatsiya boshqaruvi modullarini kuchaytirish zarur. Bu nafaqat

talabalarda, balki gidlar, mehmonxona xodimlari, turoperatorlar va mahalliy tadbirkorlarda ekologik mas'uliyatni oshiradi.

Beshinchidan, turizmning ekologik ta'sirini baholovchi milliy monitoring tizimini yaratish lozim. Ushbu tizim turist boshiga to'g'ri keladigan suv iste'moli, energiya sarfi, chiqindi hajmi, karbon izi va ekologik sertifikatlangan obyektlar ulushi kabi indikatorlarni muntazam hisoblab borishi kerak.

Oltinchidan, mahalliy aholini yashil turizm loyihalariga faol jalb etish zarur. Chunki xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, mahalliy jamoalar manfaatdor bo'lmagan hududlarda turizmning barqarorligi ta'minlanmaydi. Shu sababli oilaviy mehmon uylari, ekologik fermer xo'jaliklari, hunarmandchilik markazlari va mahalliy gidlik xizmatlarini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Yettinchidan, Orolbo'yi hududida "yashil innovatsion turizm klasteri"ni shakllantirish maqsadga muvofiq. Bu hudud ekologik turizm, ilmiy turizm, iqlim turizmi va ekologik ta'lim markazi sifatida rivojlantirilishi mumkin. Natijada ekologik muammo iqtisodiy imkoniyatga aylantiriladi. Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish bo'yicha hukumat qarori mavjud, shu bois amalga oshirilayotgan ishlarni yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

***Sirojiddin XALILOV, Alfraganus universiteti,
"Xalqaro turizm menejmenti" kafedrasini mudiri, professor***

TURIZM SOHASIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING STRATEGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya. Ushbu tezis turizm sohasida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning strategik aspektlarini umumlashtirishga bag'ishlangan. Ishda milliy turizm tarmog'ini diversifikatsiyalash strategiyasining tarkibiy tuzilishiga oid konseptual yondashuv asoslangan. Shu bilan birga, O'zbekiston milliy turizm tarmog'i raqobat ustunliklarini rivojlantirish yuzasidan takliflar ham ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm, barqaror rivojlanish, iqtisodiy o'sish, strategiya, diversifikatsiya.

Аннотация. Данный тезис посвящен обобщению стратегических аспектов обеспечения устойчивого экономического роста в секторе туризма. Работа основана на концептуальном подходе к структуре стратегии диверсификации национальной туристической отрасли. Одновременно разработаны предложения по развитию конкурентных преимуществ национальной туристической отрасли Узбекистана.

Ключевые слова: туризм, устойчивое развитие, экономический рост, стратегия, диверсификация.

Abstract. This thesis summarizes the strategic aspects of ensuring sustainable economic growth in the tourism sector. The work is based on a conceptual approach to the structure of a national tourism industry diversification strategy. Concurrently, proposals for developing the competitive advantages of Uzbekistan's national tourism industry are developed.

Keywords: tourism, sustainable development, economic growth, strategy, diversification.